

TOPONIMLAR BILAN BOG'LIQ AYRIM MULOHAZALAR. (VOBKENT TUMAN MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8331874>

Xayrullayeva Marjona omon qizi
(BuxDU tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi)

Annotatsiya

Vobkent tumani toponimlarining lisoniy-etimologik hamda morfemik tadqiqiga qaratilgani bo'lsa-da, joy nomlari haqida bugungacha amalga oshirilgan tadqiqotlariga umumiy; ham lingvistik, ham geografik; tarixiy hamda lingvistik; izohli va etimologik jihatlardan tadqiq etilgan ishlar sifatida to'xtalish o'rinlidir.

Tayanch so'zlar

lisoniy-etimologik, morfemik, qavm, areal onomastika, etimon

Turkiy qavmlarning qadimgi yodgorligi - O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asari va boshqa yozma manbalarda ham joy nomlari qayd etilgan, qadimda kishilar joylarni o'z tillariga xos so'zlar bilan nomlashgan hamda shu nomlar toponimlar sifatida bugungacha saqlanib qolgan. Toponimlarni o'rganish, tasnif, tavsif va izohli tahlil qilish bo'yicha jahonda, shu jumladan, respublikamizda ham bir qancha ishlar bajarilgan. Quyida ulardan eng asosiylariga maxsus to'xtalishni o'rinli deb bilamiz.

Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiy, Mahmud Koshg'ariylar qadim Turkiston zaminidagi joy nomlari maxsus qayd etilib, ulardan ba'zi birlarini izohlab berishganini H.Hasanov va S.Qorayev amalga oshirgan tadqiqotlarida bayon etishgan. Toponimlarni o'rganishda Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida berilgan so'zlar va ularga oid izohlar alohida ahamiyatga ega. Bu lug'at mamlakatimiz toponimlaridagi ba'zi bir tushunilishi qiyin bo'lgan so'z va ma'noli qismlarning izohlarini topishda, shuningdek, toponimlarning etimologik tahlilidagi bahsli o'rinlarga aniqlik kiritib, joy nomlarining etimonlarini ko'rsatishda noyob manbalaridan biri hisoblanadi.

Atoqli rus olimi, sharqshunos V.V.Radlov O'rta Osiyo va Rossiyaning Qorabuloq, Qiziltosh, Krasnoyarskiy kabi bir necha joy nomlarini o'rgangan. Uning bu tadqiqoti toponimlarning etimologik tahlili sifatida tan olingan.

Sharqshunos V.V.Radlovning mashhur lug'atida so'zlarning qanday ma'nolarga egaligi, shuningdek, ularning qaysi manbalarda uchrashi haqida fikr

yuritilgan. Mazkur lug'atda muallif so'zlarning ma'nolarini o'zi yashagan davr imkoniyatlaridan kelib chiqib izohlagan. M.N.Melxeyev fanda toponimlarni qanday va qay holda tadqiq qilish kerak degan bahs borayotgan bir paytda izohli hamda qisman etimologik mazmundagi taxminlari bo'lgan toponimik lug'atni nashr qildirgan.

Turli tillarga oid joy nomlarini o'rganib, tarixiy, geografik va tilshunoslik fanlari nuqtai nazaridan tadqiq etishda E.M.Murzayevning xizmati katta u toponimlarning etimologik tahlili bo'yicha ilmiy ishlar qilgan bo'lsa ham, bu sohada jiddiy shug'ullanmagan.

V.A.Nikonov joy nomlarini qanday tarzda va qanday darajada o'rganish kerakligi masalalarini alohida kitobida bayon etgan. Ammo uning toponimlarini o'rganish haqidagi fikrlari izohli, tavsifiy hamda qisman etimologik yo'nalishda bo'lgani uchun bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qaralganda mukammal holga kelmagan. Sababi, ular tavsifiy, tasnifiy va izohli tadqiq yo'nalishida berilgan. Bu olimning toponimik lug'atida to'rt mingga yaqin toponimlar tahlil qilingan. Masalan, Sibir toponimi. Kitobda berilgan ko'p toponimlarning etimologik tahlili hozirgi davr ilm-fani talablari asosida baholansa, ularda toponimlarga oid izohli mazmunga mujassamlashgan, xolos.

V.N.Toporov atoqli otlarning mustaqil tizimligi, maxsus atalganligi va toponimik xususiyatlarga egaligini, etimologik tadqiqning sinalgan ma'lum bir usul hamda tamoyillsiz ularning etimologik tahliliga kirishib bo'lmasligini bayon qilgan. Muallif bu o'rinda haq. Shuning uchun toponimlarni etimologik tadqiq qilishning yo'sinlarini o'rganish zaruriyati seziladi. A.V. Superanskaya onomastik tadqiqotlarda lingvistik jihatdan tadqiq etish yo'nalishi:

- 1) nomlarning umumiy nazariy masalalari;
- 2) onomastik tizimning ma'lum tip va turlarga bo'linishi;
- 3) tadqiqotning metodikasi;
- 4) regional va areal onomastika;
- 5) tarixiy onomastika;
- 6) badiiy asarlar onomastikasi;
- 7) onomastikadagi ishonchlilik va etimologik tadqiq;
- 8) leksik tamoyil asosida nomlarni o'rganish;
- 9) nomlarning transkriptsiyasi, transliteratsiyasi;
- 10) nomlash modellari;
- 11) atoqli otlarning standartlashtirilishi;

12) ularning lug'atlarini tuzish tarzida borishini ta'kidlaydi. Bular nomlar tadqiqiga oid bo'lgan bir butun tadqiqotlar majmuini anglatadi. Ularni bir tadqiqot

davomida amalga oshirib bo'lmaydi. Muallif ushbu fikrlari bilan toponimlar tadqiqining o'ziga xos bo'lgan aloxida tizimligini ko'rsatgan.

Bugungacha toponimlarning etimologik tadqiqi usullari mukammal holda ishlab chiqilmagan. Onomastik atamalarning, jumladan, toponimlarning etimologik tahlili hamda tadqiq yuzasidan bahs, munozaralar bo'lishiga sabab: bunday birliklarni tadqiq qilishning nazariy asoslari hamda amaliy qimmatga molik usullari har tomonlama o'ylanmagan va ilmiy - amaliy jihatdan dalillanmaganligidir. Ushbu holat haqida A.V.Superanskaya va T.D.Januzoqov maxsus to'xtalishgan. Bunday hol turli tillarga oid onomastik atamalarning, shuningdek, toponimlarning ham etimologik tahlil va tadqiqiga xos xarakterli xususiyatlardan biridir.

E. M. Paspelovning toponimik lug'atida turli mamlakatlardagi 1250ga yaqin toponimlarning tasnifiy va tavsifiy tahliliga to'xtalgan. Ammo ular etimologik tahlil emas, chunki muallif ushbu tadqiqotini ilmiy-ommabop asar tarzida tayyorlagan. M.Geldixanov Turkmanistonning milliy geografik terminlarini tasnifiy va tavsifiy yo'nalishda o'rgangan. S.Ataniyozovning Turkmaniston etnonimlari va toponimlarini tasniflash, izohlash, shu jumladan, etimologik tahlil qilishga oid ilmiy ishlari mavjud. Shuningdek, D.Isayev, K.Konkobaev, S.Xudayberganov kabi olimlarning faoliyati bilan Qirg'iziston toponimiyasi tadqiqi izohli tarzda amalga oshirildi. K.Konkobayev toponimik qatlamlar, toponimlarning leksik-semantik tahlili, ularning tuzilishi janubiy Qirg'iziston toponimlari misolida ko'rsatib o'tgan. Shu bilan birga muallif Ayni o'sha hudud toponimlari va geografik terminlarining qisqa lug'atini bergan.

O.T.Molchanova tog'li Oltoydagi turli tillarning so'zlari asosida yuzaga kelgan toponimlarni tilshunoslik va geografiya fanlari yondashuvi asosida tavsifiy yo'nalishda o'rgangan. T.M.Garipov va F.G.Garipovaning; A.Devonaqulov va R.Dodixudoyevning ilmiy tadqiqotlarda Qozog'iston, Boshqirdiston, Tatariston, Tojikiston toponimlarining tavsifiy, tasnifiy jihatlardan tahlili amalga oshirilgan.

Qozog'istonda onomastika masalalariga, shu jumladan, toponimlarning etimologik tadqiq va tahlili masalalariga bag'ishlangan to'plam nashr etilgan. Unda toponimiya, antroponimiya, etnonimiya va zoonimiya bo'limlari bo'lib, asosan, izohli, qisman etimologik tahlil talqinlari ham qayd etilgan. Bu fikrga isbot sifatida A.Abdurahmonovning ba'zi bir toponimlarning etimologik tahlili to'g'risidagi maqolasini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Turkiy tillarning etimologiyasi muammolariga bag'ishlangan anjuman (1986-yil 28-30-may) materiallari 1990-yilda nashr qilingan. Unda A.T.Kaydarov, S.V.Voronin, O.P.Molchanova kabi olimlarning oltmishdan ortiq maqolasi mavjud.

Ushbu kitobda etimologik tadqiqning nazariy masalalari ham etimologik tahlil kabi bahsli ekanligi ko'rsatilgan.

Ozarbayjon onomastikasi, xususan, toponimikasi bo'yicha professor A.Kurbanov boshchiligida bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Unda toponimlar taxmin asosida izohlangan. Shuning uchun olib borilgan etimologik tahlillarda nimadir yetishmayotganligi sezilib turadi. Sababi, ular mukammal tadqiq va talqin etilmagan.

Shuningdek, turkiy xalqlardan biri bo'lgan qalmlar onomastikasi bo'yicha ham maxsus tadqiqot olib borilgan. Unda toponim va antroponimlar tadqiqiga oid qator fikrlar bildirilgan.

Ba'zi bir joy nomlariga o'rganilgan mavzuga ma'lum ma'noda aloqador bo'lgani uchun tavsifiy mazmunda izohli va etimologik sharhlar berilgan tadqiqotlar jumlasiga S.Ibrohimov, A.Ishayev va Sh.Nosirov kabi olimlarning ishlarini qayd etish lozim (adabiyotlar ro'yxatiga qarang). S.Ibrohimov bilan A.Ishaev Andijon va Mang'it toponimlari haqida izohli hamda qisman etimologik tahlil berishgan. Sh.Nosirov esa Qo'qon joy nomini faqat tavsifiy jihatdan talqin qilgan, xolos.

H.Hasanovning ishlarida toponimlarni transkriptsiya qilish, izohli tasnifi va tavsifi, shuningdek, ularning geografik tavsiloti muammolariga to'xtalangan. Biroq muallif ularning etimologik tahlili yuzasidan fikr yuritmagan.

E. Begmatov toponimika masalalariga oid ilmiy maqolalar yozgan, ammo joy nomlarining etimologik tahliliga maxsus to'xtalmagan (adabiyotlar ro'yxatiga qarang). A.Muhammadjonovning tadqiqotlarida ba'zi bir toponimlarning tavsifi va etimologik tahliliga tarixiy jihatdan ko'proq yondashish seziladi. Uning bir qator maqolalarida ba'zi toponimlarning etimologik tahlili amalga oshirilgan (adabiyotlar ro'yxatiga qarang). Q.Abdumuratov Qoraqalpog'istondagi joy nomlarini izohlagan.

S.Qorayevning tadqiqotlarida toponimlarning tasnifi, tavsifi va izohli tahliliga ham lingvistik, ham geografik nuqtai nazardan munosabat bildirgan (adabiyotlar ro'yxatiga qarang). Uning «O'zbekiston viloyatlari toponimlari» nomli kitobida mamlakatimiz maydoni 14 ta toponimik hududga bo'linib, etnonimlarning ma'nosi, toponimikani kodlari yoritilgan.

O'zbekiston toponimiyasining tadqiq etilishida bevosita ishtirok etgan olimlardan yana biri professor Zaripboy Do'simovdir. Uning tadqiqotlarida Xorazm hududidagi joy nomlarining yasalishi, nomlanishi hamda izohlanishiga, ba'zi toponimlarning etimologik tadqiqiga e'tibor qaratilgan (adabiyotlar ro'yxatiga qarang). Muallifning «Toponimika asoslari» nomli kitobida tarixiy

toponimika va uning muammolari, toponimlar tasnifi, joy nomlarining semantik turlari, joy nomlarining grammatik tarkibi va tarixiylikiga ko'ra turlari, ularning yasalishi, toponimik indikatorlar, ularning tasnifi, toponimlarning atalish prinsiplari, tomonlarni o'rganish metodlari, maktabda toponimika mavzulari tavsifiy-tasnifiy holatda yaratilgan.

Sh.Qodirova "МикроТОПОНИМЫ Ташкента" ishida Toshkent shahri mikrotoponimlarini tavsifiy, izohli, qisman etimologik tahlil qilgan, biroq shahar mikrotoponimiyasi to'liq to'planmagan, mikrotoponimiya tushunchasi va bu tushuncha doirasiga kiruvchi nomlar haqida to'xtalmagan.

S.Nayimov tadqiqotlarida Buxoro viloyati toponimlarning etnotoponimlar, antropotoponimlar hamda topotoponimlari keng va atroflicha o'rganilgan.

L.Karimovanning "O'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi" nomli ishi shimoliy o'zbek shevalarida uchragan toponimlarning asosan izohli, qisman etimologik tahlili va o'zbek tilshunosligida toponimlarning o'rganilishi kabi masalalarga qaratilgan. Muallif Qarnoq, Cho'rnoq, Suvnoq, Chilik, Qarsaqt, Qo'rali kabi bir qancha joy nomlarining etimologik tahliliga to'xtalgan. Ammo ulardan ba'zi birlarining etimologik tahlili yakunlanmagan va ularning etimonlari haqida to'xtalinmagan.

O'zbekiston toponimlarining tahlili va tadqiqiga oid ilmiy ishlarda ularning morfologik, leksik-semantik, sintaktik va yasalish xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Ba'zi bir tadqiqotlarda etimologik tahlil haqida fikr ilgari surilgan va ularda etimologiya termini qo'llangan. Bunda etimologik tahlil yoki etimologik tadqiq terminlarini ishlatish o'rinli bo'lar edi. Bugungi kungacha joy nomlari geografik, geologik va tarixiy jihatlardan tavsiflingan va tilshunoslik nuqtai nazaridan izohlangan. Natijada, toponimikaga oid ishlarda ba'zi bir toponim (masalan, Buxoro, Toshkent, Qarshi kabi)larning bir-biriga zid bo'lgan bir necha xil talqini uchraydi. Bu esa ushbu sohada bahs talab masalalarning ko'payishiga olib kelgan.

Ko'pchilik olimlar, jumladan, H.Hasanov, E.M.Murzayev, V.A.Nikonov, E.M.Pospelov, Q.Qonqaboyev, M.Geldixanov, S.Ataniyozov, D.Isayev, S.Xudoyberganov, O.T.Molchanova, T.M.Garipov, F.G.Garipova, A.T.Kaydarov, S.V.Voronin, Q.Abdumuratov, Z.Do'simov, T.Nafasov, N.Oxunov, J.Latipov, T.Raxmatov, B.O'rinboyevlar toponimlarni umumiy tavsifi va tasnifini berishgan.

Ba'zi bir olimlarning, shu jumladan, A.V.Superanskaya, T.D.Januzoqov, E.M.Murzaev, V.A.Nikonov, S.Ataniyozov, S.Qorayev, Yo.Xo'jamberdiyev, Sh.Qodirova, A.Ishayev, L.Karimova, A.Otajonovalar ilmiy ishlarida etimologik tahlil va etimologik tadqiq qilish kerakligini qayd etishgan holda, ba'zi

toponimlarni tavsiflash va izohli tahlilini amalga oshirish mavjud. Mazkur ishlarda O'zbekiston toponimlarining tasnifi va izohli tavsifi kabi masalalar ko'rilgan, lekin toponimlarning lug'aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo'sinlari masalasi e'tibordan chetda qolgan. Shu bilan birga, toponimlarning etimologik tadqiqi masalasiga u yoki bu darajada yondashgan ba'zi bir tadqiqotlar ham bor.

Ular toponimlarning etimologik tadqiqida yangi, o'ziga xos yo'nalish bo'lsa ham, toponimlarni etimologik tadqiq qilishning yo'sinlari o'rganilmaganligi va etimonlari aniqlanmaganligi bilan mukammallik darajasiga ko'tarilmagan. Ushbu tahlillarda, albatta, o'ziga xoslikni asoslaydigan dalillar bor. Ammo mana shu dalillarning qaysi biri o'rganilayotgan joy nomi uchun asosli va ishonchli ekanligini isbotlaydigan tamoyil hamda usullar ko'rsatilmagan. Sababi, ularda etimologik tadqiq uchun zarur bo'ladigan omil, tamoyil va usullar, shuningdek, toponimlar va ular lug'aviy asoslarining etimologik tadqiqiga oid masalalar majmui to'liq asoslab berilmagan. O'zbekiston toponimlari ham tarixiy, ham bugungi davrga xususiyatlarga egaligi, alohida nomlanish va motivlanish tizimining mavjudligi, shuningdek, turli toponimik hududlarga bo'linganligi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlarning majmui toponimlarni etimologik tadqiq qilishning tamoyil va usullariga, bu tadqiqda yondashilgan masalalarga, shu jumladan, ularning motivlanishiga bir butun holda qarash kerakligini ko'rsatib turibdi. Buning uchun joy nomlari va ularga asos bo'lgan lug'aviy asoslarining etimologik tadqiqiga oid masalalarni, shuningdek, tadqiqotlarda qo'llanishi lozim bo'lgan omil, tamoyil va usullarni etimologik tahlil va tadqiqining yo'sinlari sifatida o'rganish zarur.

Xullas, O'zbekiston toponimlari quyidagicha tadqiq etilgan:

- Bugungacha toponimlar asosan umumiy, lingvistik, geografik va tarixiy yo'nalishlarda qayd etilib, tavsifiy hamda izohli tarzda o'rganilgan. Mana shu yo'nalishlarning ta'sirida mamlakatimiz toponimlarini talqin etish birmuncha keng an'ana bo'lsa ham, ularning etimologik tahlili tadqiqiga kam munosabat bildirilgan.

- XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'zbekiston toponimlarini tuman va shaharlar doirasida tavsifiy, tasnifiy mazmunda tadqiq etish boshlangan. Bu tadqiqotlarning ba'zilarida etimologik tahlil berilgan, ammo ular mukammal etimologik tahlil darajasida amalga oshirilmagan.

- Vatanimiz toponimlariga oid ilmiy ishlar oddiy lisoniy hamda geografik tavsifdan izohli tavsif va tasnifga qarab borgan. Ammo ularda toponimlarning etimologik tahliliga yo'l-yo'lakay to'xtalingani va ularni etimologik tadqiq qilishning me'yorlariga e'tibor berilmagani uchun amalga oshirilgan joy

nomlarining etimologik tahlili, bugungi kun nuqtayi nazaridan qaralganda, mukammal holatga kelmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qorayev S. Toponimika. T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2006, 46-b.
2. Бўриев С. Топонимик қонуниятлар хусусида // Материалы VII съезда географического общества Узбекистана. – Ташкент, 2006.–Б.84–85.
3. Қиличев Б. Бир топоформат ҳақида // Филология масалалари. Т.: 2007.
4. Ҳожиёв А. Тил қурилишининг асосий бирликлари юзасидан мулоҳазалар// Ўзбек тили ва адабиёти. 2004, 5-сон, 33-43-б.
5. Дўсумов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1977.
6. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Т.: Ўқитувчи. 1988. 165-б.
7. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. Toshkent, 2009, 396-b.